

DUNYO NIGOHI SAMARQANDDA**Xazratqulova Xusnidabonu Oybekovna***Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti filologiya yo'nalishi 1-bosqich talabasi*khazratkulovabonu@gmail.com

Samarqand. Bu soʻzni eshitganda har bir oʻzbek farzandi qalbida faxr hissini tuyadi. Bugun uning jamolini koʻrish uchun ne-ne sayyohlar uzoq yurtlardan tashrif buyurmoqda. Sababi Samarqand azaldan yeri, suvi, manzarasi, tarixiy obidalar bilan jahonga mashhur. Tarixdan maʼlumki, u uzoq yillar davomida buyuk Sohibqiron, qudratli sarkarda Amir Temur tuzgan davlat poytaxti sifatida dunyoga nom chiqargan va bugungi kungacha bu qutlugʻ nomga munosib, oʻz mavqeyini yoʻqotmagan. Shu bois shahardagi bunyodkorlik ishlari jahon hamjamiyati tomonidan tan olinib, Samarqand “Jahon madaniy turizm poytaxti” deb eʼlon qilindi va bir necha yillardan buyon xalqaro tadbir va festival oʻtkaziladigan markaz deb eʼtirof etilmoqda. Buning yaqqol namunasi, shahar tariximizda unutilmas voqea sifatida muhrlanayotgan yirik siyosiy tadbir YUNESKO bosh konferensiyasining 43-sessiyasiga mezbonlik qiladi. Eʼtiborlisi shundaki, taʼlim, ilm-fan, madaniyat, ekologiya va boshqa global masalalar muhokama qilinuvchi ushbu tadbir 40 yilda birinchi marotaba oʻz qarorgohi Parijdan tashqarida boʻlib oʻtadi. Bu xabarni eshitib, “Sharq gavhari”da tugʻilganimdan koʻnglim faxr va quvonchga toʻldi. Bosh konferensiya 30-oktabrdan 13-noyabrga qadar davom etadi. Tashkilotga aʼzo 190dan ortiq davlatlarning delegatlari Samarqandda yigʻilgan, demak endi YUNESKOning yangi qarorlari Parijdan emas, Samarqanddan qabul qilinadi. Oʻzbekiston Prezidenti matbuot xizmatining maʼlum qilishicha, 200ga yaqin davlatdan 2800dan ortiq delegatlar ushbu tadbirda qatnashmoqda. Shuningdek, 70ga yaqin martabali mehmonlar ham ishtirokchilar qatorida. Tadbirning ochilish marosimida YUNESKO bosh direktori Odri Azule moderatorlik qilmoqda. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tadbirning kirish qismida oʻzbek tilida tantanali nutq soʻzladi: “Shiddat bilan oʻzgarayotgan dunyoda gumanitar sohada global konsensus va koʻp tomonlama hamkorlik mexanizmlarining zaiflashgani, albatta, barchamizda jiddiy tashvish uygʻotmoqda. Geosiyosiy keskinlik va harbiy mojarolar taʼsirida sayyoramizdagi noyob yodgorliklar, muqaddas qadamjolar va bebaho madaniy meros katta ziyon koʻrmoqda. Davlatlar oʻrtasidagi bilim va texnologiyalar, raqamli resurslardan foydalanish boʻyicha tafovut ortib bormoqda. Buning natijasida imkoniyatlar tengsizligi va qashshoqlik kuchaymoqda. Bunday murakkab vaziyat YUNESKOning asosiy vazifalarini toʻliq amalga oshirish boʻyicha saʼy-harakatlarimizni har qachongidan ham koʻproq birlashtirishni taqozo etmoqda. Biz YUNESKOning oliyjanob va ezgu maqsadlariga qatʼiy sodiq ekanimizni yana bir bor taʼkidlaymiz”.

Haqiqatan ham, bugun Yangi O'zbekiston madaniyat, savdo va innovatsiyalar markaziga aylanib, turizm, texnologiyalar, "yashil" energetika hamda ijodiy sohalarda yangi, jasoratli imkoniyatlarni ochmoqda. Bu Yurtboshimizning xalq manfaatlariga xizmat qiladigan islohotlari natijasidir.

Ijtimoiy tarmoqlarda shu mavzuga doir axborotlarga qiziq boshladim va YUNESKOning O'zbekistondagi vakolatxona rahbari Sara Noshadi xonimning intervyusiga ko'zim tushdi. Noshadi xonim "Safar O'zbekiston" loyihasidagi nutqida shunday degan edi: "Tarixda ilk bor YUNESKO bosh anjumani Parijdan tashqarida o'tkaziladi va bu shahar Samarqand! O'zbekiston esa bu ishni amalga oshirgan birinchi davlat bo'ldi. Men buni O'zbekistonning ulkan yutug'i deb bilaman. Shu paytgacha 40 yil davomida boshqa hech bir mamlakat bunday yirik loyihani taklif qilishga botina olmadi. Sababi oddiy biz bu anjumanni Parijdan boshqa joyda o'tishini tasavvur ham qilolmasdik. Mening Parijdan kelayotgan hamkasblarim ham bu konferensiyani har doim Parijda tashkil etib kelganlar. Biz YUNESKO xodimlari uchun bu nafaqat kichik o'zgarish, menimcha, biz uchun juda katta sinov. Bu biroz boshqacharoq emas. Bu butunlay boshqacha..." Afsonaviy shaharlar, asrlar davomida yashab kelayotgan an'analar va betakror san'at - O'zbekiston o'z o'tmishini ulug'lagan holda, bugun butun dunyoga ilhom bag'ishlamoqda. Shunday tarixiy lahzaga guvoh bo'lish - baxtning o'zginasi...

Samarqand va YUNESKO o'rtasidagi hamkorlik- bu faqat tarixiy obidalami asrash emas, balki xalqimizning boy madaniyatini dunyoga tanitish, milliy qadriyatlarni e'zozlash, yosh avlodda faxr tuyg'usini uyg'otish yo'lidagi ulkan qadamdir. Ushbu sessiya xalqaro hamjamiyatning O'zbekistonga bo'lgan ishonchini, hurmatini va e'tirofini yaqqol namoyon etdi. Samarqandda yangragan YUNESKO minbaridagi ovoz - bu aslida O'zbekistonning ovozi, tinchlik va taraqqiyotga chorlovchi ovozdir. Kelajak - o'z tarixini, asragan, o'z madaniyatini e'zozlagan, o'z xalqiga sodiq bo'lgan yurtnikidir. O'zbekiston esa ana shunday buyuk kelajakka dadil qadam tashlamoqda! Yurtim kelajagi shamoli Markaziy Osiyo bilan bir qatorda, jahon maydonida ham esmoqda. Biz dunyoga o'z so'zimizni aytishga, o'z salohiyatimizni namoyon etishga tayyormiz!